



**O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SOHASINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Tursunqulova Muxlisa Hayotovna

Guliston Davlat Universiteti

Menejment kafedrası o'qtuvchisi

muxlisatursunqulova033@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va institutsional islohotlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirish, soliq imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va raqamli xizmatlarning joriy etilishi bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tashkiliy-huquqiy asoslar, davlat qo'llab-quvvatlashi, tadbirkorlik siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar, imtiyozlar, moliyaviy mexanizmlar, innovatsion rivojlanish, raqamli boshqaruv.*

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xususiy mulkdorlarni shakllantirish va ularni har tomonlama himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bular esa, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlar va ishbilarmonlar ulushining yildan yilga oshishini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tashabbusi bilan bozor iqtisodiyotining asosiy negizlaridan bo'lgan hususiy mulk huquqini mustahkamlash, uning daxlsizligi va ishonchli huquqiy himoyasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida", "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi shular jumlasidan. Ayniqsa xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarini kafolatlash soha rivojida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mamlakatimizda shakllangan va bugungi kunda yanada takomillashtirilib kelinayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mazkur qonunchilik tizimi mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, mulkdorlar sinfining shakllanishiga, xususiy mulk himoyasi va daxlsizligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yuritishga huquqiy kafolatlar bo'lib xizmat qilmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan xususiy mulkning o'rni va mavqeinioshish borasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Sh.Mirziyoyevning 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848 sonli Farmonini e'lon qilinishi soha rivojida yangi sahifa ochib berdi.

Mazkur Farmonda tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to'sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari talablari qat'iy bajarilishini, xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishni kengaytirish, biznes muhitni yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar hamda ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash quyidagi 4 yo'nalishda amalga oshiriladi. Bular:

1. Siyosiy yo'nalishda qo'llab-quvvatlash;
2. Iqtisodiy yo'nalishda qo'llab-quvvatlash;
3. Huquqiy yo'nalishda qo'llab-quvvatlash;
4. Ijtimoiy yo'nalishda qo'llab-quvvatlash.

Mamlakatimizda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror rivojlanishi hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2016-yillarda KBXTning YAIMdagi ulushi 31,0 foizdan 56,9 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-oktyabridagi "Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori. Xalq so‘zi, 2003-yil 12-oktyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-yanvardagi “Respublika hududida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 8-sonli qarori. / www.lex.uz

3. Abdullayev Y. Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010. – 351 b.

4. Abdullayev Y. Yuldashev Sh. Maliy biznes i predprinimatelstvo. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 339 s.

5. Alimov R.X. va boshqalar. Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2004. – 320 b.;